

07.00.00 – TARIX FANLARI

“ARKANAQUN” EPOSI SYUJETINING TURK XOQONLIGI TARIXIGA BOG‘LIQLIK JIHATLARI

*Ergashev Jahongir Yunus o‘g‘li,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dozent. Buxoro davlat universiteti
<https://orcid.org/0000-0000-0000-0000>*

*Latipov Jasur Laziz o‘g‘li,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, Buxoro davlat universiteti
<https://orcid.org/0009-0005-0788-6523>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy va mo‘g‘ul xalqlarining qadim tarixidan hikoya qiluvchi “Arkanaqun” eposi, uning shakllanish jarayoni hamda ushbu jarayonga ta’sir o‘tkazgan omillar xususida so‘z yuritilgan. Shuningdek, risolada tarixiy voqeajarayonlarning bir-biri bilan bog‘liqligi, turk xoqonligi tarixidagi etno-ijtimoiy o‘zgarishlar siyosiy va madaniy hayotga o‘z ta’sirini o‘tkazganligi haqida ham tahlil qilingan. Turkiy hamda mo‘g‘ul xalqlari ijodidagi “Arkanaqun” eposining yagona original matni mavjud bo‘lmasa-da, uning turli tarixiy manba va adabiyotlar tarkibida uchraydigan syujeti bizga ilmiy xulosalar berishga asos bo‘la oladi. Asarlarda uning afsonaviylikdan ko‘ra tarixiylik xususiyatlariga ko‘proq ishora qilinishi tufayli biz “Arkanaqun” eposini aniq tarixiy jarayonlarni o‘zida aks ettirgan manba sifatida e’tirof etish mumkin. Eposning asosiy mazmuni qo‘sni qabilalar tomonidan qirib tashlangan aholi sanoqli vakillarining tasodifan omon qolishi, tog‘lar oralig‘ida yashirinishi, keyinroq ularning avlodlari ko‘payib, qaytadan yirik xalq bo‘lib birlashishi hamda dushmanlaridan ajdodlari uchun qasos olishi voqealarining bayoniga asoslangan. Qadimgi davr va ilk o‘rta asrlarda yuz bergan tarixiy jarayonlarning asrlar mobaynida ko‘hna madaniy meros sifatida ko‘pgina xalqlar ma’naviyatidan o‘rin olganligi ushbu maqolaning dolzarbligini ko‘rsatadi. Maqolani yozishda tarixiy manba va adabiyotlarda keltirilgan tarixiy, etnografik, lingvistik, xronologik va boshqa ilmiy dalillardan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: “Arkanaqun” eposi, Turk xoqonligi, Ashina urug‘i, Xitoy, Xunnlar davlati, Oltoy tog‘lari, Ko‘k (Kulrang) bo‘ri, affsona, tarixiylik, mo‘g‘ullar, tatarlar, Shivey, An Lushan qo‘zg‘oloni, Tarbag‘atoy.

АСПЕКТЫ СЮЖЕТА ЭПОСА «ЭРГЕНЕКОН», СВЯЗАННЫЕ С ИСТОРИЕЙ ТЮРКСКИЙ КАГАНАТ

*Эргашев Жахонгир Юнус угли,
доктор философии по историческим наукам (PhD), доцент, Бухарский государственный университет*

*Латипов Джасур Лазиз угли,
доктор философии по историческим наукам (PhD). Бухарский государственный университет*

Аннотация: В данной статье говорится о эпос «Эргенекон», повествующей о древней истории тюркских и монгольских народов, процессе ее формирования и факторах, повлиявших на этот процесс. В брошюре также анализируется взаимосвязь исторических событий и влияние этносоциальных изменений в

истории Тюркского каганата на политическую и культурную жизнь. Хотя единого оригинального текста эпоса «Эргенекон», созданного тюркскими и монгольскими народами, не существует, его сюжет, встречающийся в различных исторических источниках и литературе, может стать основой для научных выводов. В связи с тем, что произведения относятся скорее к историческим особенностям, чем к легендарным, мы можем признать эпос «Эргенекон» источником, отражающим конкретные исторические процессы. Основное содержание эпоса основано на рассказе о случайном выживании нескольких представителей населения, истребленных соседними племенами, скрывавшихся в горах, впоследствии их потомки размножились и снова объединились в большой народ, и они взяли месть своим врагам за своих предков. Актуальность данной статьи проявляется в том, что исторические процессы, происходившие в древности и раннем средневековье, имели место в духовности многих народов как древнем культурном наследии. При написании статьи были использованы исторические, этнографические, лингвистические, хронологические и другие научные свидетельства, представленные в исторические источники и литературе.

Ключевые слова: эпос «Эргенекон», Тюркский каганат, род Ашина, Китай, государство гуннов, Алтайские горы, Синий (Серый) волк, легенда, историчность, монголы, татары, Шивэй, восстание Ань Лушанья, Тарбагатай.

ASPECTS OF THE PLOT OF THE EPIC “ERGENEKON” RELATED TO THE HISTORY OF THE TURKIC KHAGANATE

Ergashev Jahongir Yunus ugli,

Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD). Bukhara State University

Latipov Jasur Laziz ugli,

Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD). Bukhara State University

Abstract: This article talks about the “Ergenekon” epic, which tells about the ancient history of the Turkic and Mongolian peoples, the process of its formation, and the factors that influenced this process. The pamphlet also analyzes the interrelationship of historical events and the impact of ethno-social changes in the history of the Turkic khaganate on political and cultural life. Although there is no single original text of the epic “Ergenekon” created by the Turkic and Mongolian peoples, its plot found in various historical sources and literature can be the basis for scientific conclusions. Due to the fact that the works refer more to historical features than to legendary ones, we can recognize the “Ergenekon” epic as a source that reflects specific historical processes. The main content of the epic is based on the story of the accidental survival of a few representatives of the population who were exterminated by the neighboring tribes, hiding in the mountains, later their descendants multiplied and united again into a large nation, and they took revenge on their enemies for their ancestors. The relevance of this article is shown by the fact that the historical processes that took place in ancient times and the early Middle Ages took place in the spirituality of many peoples as ancient cultural heritage. Historical, ethnographic, linguistic, chronological and other scientific evidences presented in the historical sources and literature were used in writing the article.

Key words: “Ergenekon” epic, Turkic khaganate, Ashina clan, China, the state of the Huns, Altai mountains, Blue (Gray) wolf, legend, historicity, Mongol, Tatar, Shiwei, An Lushan rebellion, Tarbagatai.

Kirish.

Turkiy hamda mo‘g‘ul xalqlari ijodidagi “Arkanaqun” eposi turli variantlarda bayon etilgan, o‘ziga xos multinasional “yaratilish dostoni”dir. Ushbu dostonning yagona original matni mavjud bo‘lmasa-da, uning turli tarixiy manba va adabiyotlar tarkibida uchraydigan syujeti bizga ilmiy xulosalar berishga asos bo‘la oladi. Asarlarda uning afsonaviylikdan ko‘ra tarixiylik xususiyatlariga ko‘proq ishora qilinishi tufayli biz “Arkanaqun” eposini aniq tarixiy jarayonlarni o‘zida aks ettirgan manba sifatida e’tirof eta olamiz. Eposning asosiy mazmuni qo‘shti qabilalar tomonidan qirib tashlangan aholi sanoqli vakillarining tasodifan omon qolishi, tog‘lar oralig‘ida yashirinishi, keyinroq avlodlari ko‘payib, qaytadan yirik xalq bo‘lib birlashishi hamda dushmanlaridan ajdodlari uchun qasos olishi voqealarining bayoniga asoslangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

“Arkanaqun” dostoni turkiy va mo‘g‘ul xalqlarining tarixini o‘zida umumlashtirgan transmilliy eposdir. Ushbu dostonni turkiy xalqlarning umumiylarini tegishli ekanligidan o‘zbek xalqining ham ilk eposlaridan biri sifatida qabul qilish mumkin. Bundan tashqari, uning yozma ko‘rinishlari Rashididdin, Mirzo Ulug‘bek, Abulg‘oziy Bahodirxonkabi tarixchilar asarlaridan joy olgan. Maqolani yozishda dostonning dastlabki variantlari sifatida “Chjou shu”, “Suy shu”, “Sin Tang shu” kabi Xitoy yilnomalaridagi qismlaridan foydalanildi. Shuningdek, “Arkanaqun” eposining “Mo‘g‘ullarning sirli tarixi”da keltirilgan ilk mo‘g‘ul versiyaga ham asoslanib xulosalar qilindi. Maqolani yozishda tarixiylik, xronologik, hududiy kabi tadqiqotchilik usullaridan foydalanildi.

Muhokama.

Dostonning qadimgi turk versiyasi Xitoy yilnomalarida bayon etilgan. Unga ko‘ra, qo‘shti raqiblari tomonidan qirib tashlangan qadimgi turk qabilalarining so‘nggi vakili bo‘lgan bir majruh yigit va uni topib olgan urg‘ochi bo‘ri (ehtimolki, shu totemga ega qabila vakilasi) nikohidan ovloq g‘orda 10 o‘g‘il tug‘ilgan [10; B.1863, 21; B.907]. Bu o‘g‘illarning har biri bir urug‘ga asos soladi. Ulardan birining nomi Ashina bo‘lib, Buyuk Turk xoqonligi (552-659) hukmdorlari uning naslidan edi [30; B.82]. Taniqli tarixchi olim L.Gumilev ushu afsonaga asos bo‘lgan tarixiy voqelik sifatida Sharqiy Yevropadagi g‘arbiy xunnalarning 468 yilda qirib tashlanishini keltiradi [11; B.28]. Ammo, olimning o‘zi taxmin qilganidek, masofa uzoqligi hamda avlodlarning bir asrdan kamroq vaqt ichida juda ko‘p sonli millatga aylanishi ehtimolining kamligi bu fikrni haqiqat sifatida qabul qilishimizga to‘sinqlik qiladi. N.Bichurin bayon qilgan fikr esa milodiy 92-yilda Tarbag‘atoy o‘lkasida xitoyliklardan yengilgan shimoliy xunnalarning Oltoy tog‘lariga chekinishi hamda 460-yildan so‘ng temir ishlab chiqaruvchi turklarning Ellig‘ xoqon (Bumin, 552-553) rahbarligida o‘z davlatlarini tashkil etishini umumiylashtirgan [9; B.226]. Olim o‘z farazini asoslash uchun dostonning mo‘g‘ul versiyasida tilga olingan muddat hamda afsonada qirib yuborilgan qabilaning so‘nggi vakili bo‘lgan yigitning Gaochang hududida jon saqlaganligi keltirilishi faktiga e’tibor qaratgan.

Umuman olganda, mo‘g‘ul versiyasida tilga olingan “Arkanaqun” dostoni asrlar davomida turkiy xalqlar uchun ham umumiylarini kasb etgan. Masalan, ba’zi turk adabiyotlarida “Arkanaqun” dostonidagi 400 yillik muddat Xunnlar davlati (mil. avv. 209 – milodiy 46)ning zaiflashishidan to VI asr 40-yillarda Bumin xoqon kurash maydoniga kelguniga qadar Syanbi ittifoqi (taxm. 93-234) va Jo‘jan xoqonligi (330-555)ga qaramlik davridan iborat deb hisoblanadi [4; B.479-480]. Bu esa yuqorida N.Bichurin fikriga xronologik yondashuv nuqtai nazariga ancha yaqin fikrdir. Bunday holatda dostonning yashirinish syujeti ramziy ma’no kasb etib, shunchaki vassallik xarakterini anglatuvchi tushunchaga aylanib qoladi.

Dostonning mo‘g‘ul versiyasiga bog‘lanishi holati turk milliy adabiyotlarida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. Musulmon muarixlari tomonidan Arkanaqun voqeasidan

ilgarigi davrlarga xosligi aytib o'tilgan diniy-afsonaviy mazmunga ega voqealarga nisbatan XIX asr rus mualliflari ham shunga yaqin fikrlarni bildirganlar. Masalan, N.Bichurinning yozishicha, mil.avv. 220-yilda Ordos yaylovlaridan haydab chiqarilgan xunn hukmdori Tumanxon (mil.avv. 220-209)ning o'g'li Modu shanyuy (Mode yoki Mao Dun, mil.avv. 209-174) aslida qadimgi turkiy xalqlarning Arkanaqun voqeasidan ilgari yashaganligi e'tirof etilgan ajdodi – O'g'uzxon bo'lib, uning o'z otasini o'ldirib taxtga o'tirganligi, yirik imperiya tuzganligi afsona voqealariga juda o'xshashligi bilan e'tiborni tortadi [9; B.225].

Moduning shaxsiyati Uzoq Sharq mintaqasi davlatchiligi tarixining boshlang'ich davri uchun alohida muhim o'rinn tutadi. U shimoliy dashtlarda eng dastlabki, yirik va kuchli imperiya – Syungnu (Xunnlar davlatining xitoycha nomi)ga asos solgan hukmdor hisoblanib, hatto dastlabki urushdayoq Xitoyning Xan sulolasi (mil.avv. 206 – mil. 220) qo'shinlarini mag'lub etgan [28; B.328,331]. Tarixchi Lin fon Palning fikricha, mil.avv. III asr oxirida Moduning rahbarligidagi xunnlar biroz sharqda qaror topgan Dungxu qabila ittifoqi (mil.avv. VII asr – 150-y.)ni ham mag'lubiyatga uchratgach, dungxu qabilalarining bir guruhi (Uxuan xalqi) Janubiy Manjuriyaga o'rnashadi. Shuningdek, shimol va shimoli-g'arbiy Manjuriyada keyinroq Syanbi ittifoqi qaror topdi. Mil. II asrning bиринчи yarmida bir guruh syanbi qabilalari Tanshixuay ismli sardor bilan, boshqalari (Toba) esa ayni asrning oxirida sardor Tuyin boshchiligidagi Dalay-Nor ko'li atroflariga chekinib, III asrda sobiq Syungnu yerlarini yegallaydilar. Olimning yozishicha, aynan o'z hududida muqim qolgan va VI asr o'rtalarida turklar bosqiniga uchragan syanbi qabilalari I mingyillikning 2-yarmida Shivey (O'ttiz tatar) ittifoqini tashkil qilganlar [25; B.38-40].

"Arkanaqun" dostonining mo'g'ul va qadimgi turk versiyalarining o'zaro o'xshash, umumiy jihatlari ham talaygina. Masalan, har ikkala dostonning asosiy xususiyatlaridan biri Ko'k bo'ri (yoki Kulrang bo'ri)ga avlodlik mavzusidir. "Borte" turkiy tillarda "kulrang", "Chino" esa tungus-manjur tillarida "bo'ri" demakdir. Shuningdek, "Maral" so'zi turkiy tillarda "bug'u" ma'nosini anglatadi. Tungus-manjur tillarida bu ma'noni "goa, xoay" (quva) atamasi beradi [16; B.187]. Eslatmoq joizki, dostonning mo'g'ul versiyasida Borte-Chinoning xotini Qoa-Maral deb nomlangan. Bu esa dostonning shakllanishida alohida bir etnos emas, balki butun mintaqqa xalqlarining hissasi borligini ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, dostonning qadimgi turk versiyasida ham urg'ochi bo'ri obrazi ona avlod sifatida syujet markazida turadi.

Temir ishlatishning boshlanishi ham "Arkanaqun" turkumi dostonlari uchun umumiy xususiyatlardan biri bo'lib hisoblanadi [15; B.380-381]. Dostonning musulmon tarixiy kitoblarida tasvirlangan mo'g'ul versiyasiga ko'ra, qadimgi qirg'indan ikki kishi va ularning xotinlari omon qoladi. Ular baland tog'lar oralig'iga o'rnashib oladilar. Oradan 450 yil o'tgach esa, ularning avlodlari tog' darasidagi temirni eritib, chiqish yo'lagi ochadilar va yana keng olam yuzini ko'radilar. Sal yuqoriroqda Bumin boshliq qadimgi turklarning ham temir ishlab chiqarish bilan shug'ullanganliklarini yozgan edik.

"Jome' ut-tavorix" asarining muallifi Rashididdin "Arkanaqun" dostonini o'z asarida bayon etgan ilk musulmon tarixchisidir [26; B.153]. Bir o'rinda u o'z asarini yozishda mo'g'ullarning xazinalarida maxfiy saqlanuvchi yilnomalarga asoslanganligiga ishora qilgan. Ammo, ushbu yilnomada voqeа birmuncha boshqacharoq tarzda bayon etilgan. "Yuan chao bi shi" ("Mo'g'ullarning sirli tarixi") asari tarjimalarida tog'ni o'yib chiqish o'rniga "Ko'k bo'ri" (ruscha tarjimada "qo'ng'ir bo'ri" tarzida keltirilgan)ning osmondan tug'ilishi va "Kulrang bug'u"ga uyylanishi syujeti bor [3; B.1, 27; B.23]. Ularning nomlari yuqorida eslatilgan edi. Musulmon tarixnavislik an'analariga ko'ra, Odam (a.s.)ning ilk inson deb hisoblanishi nuqtai nazaridan, keyinroq Borte-Chino (musulmon manbalarida Barta China) ilk inson sifatida emas, balki, tog'ni o'yib chiqqan qahramon sifatida

ta’riflana boshlangan bo‘lishi ham mumkin. Yana bir taxminimiz borki, bu taxmin Rashididdin asarida tilga olingan Arkanaqun voqeasi haqidagi ilk yozma manbalar yo‘qolib ketganligi tufayli uning og‘zaki rivoyatlarga tayanib yozilganligi ehtimoliga asolanadi. Biz Rashididdin dostonni o‘zi ijod qilganligidan ko‘ra, og‘zaki rivoyatlarga asoslanganlik ehtimolini haqiqatga yaqin deb hisoblaymiz. Chunki, asarda qabilaturug‘larning shakllanishi hamda shu kabi boshqa tarixiy jarayonlarni yoritib beruvchi, mazmuni folkloriga yaqin bo‘lgan bir qancha ma’lumotlar bayon etilgan.

“Shajaryi turk”da ham tatar, qirg‘iz va boshqa elatlarining mo‘g‘ul xalqini qirib tashlaganligi, Qayon va Nukuz ismli ikki kishi o‘z xotinlari bilan Arkanaqun tog‘ida yashiringanligi, oradan 450 yil o‘tgach Barta China ismli xon boshchiligidagi temir yo‘lakni eritib tog‘dan chiqilganligi hamda tatarlardan qasos olinishi haqidagi rivoyatlar bayon etiladi [8; B.27-30]. Mirzo Ulug‘bekning ta’kidlashicha esa, Sevinchxon boshliq tatarlar Jayhun va Movarounnahrdan o‘tib kelgan Tur ibn Faridun bilan ittifoqchilikda urush boshlab mo‘g‘ullarni qirib tashlaganlar. Bu O‘g‘uzxonidan bir necha avlod keyin yashagan Elxon ismli hukmdor davrida yuz bergen. Bunda Ulug‘bek mo‘g‘ullarning raqiblarini quyidagicha ta’riflaydi: “Turklarning, uyg‘uru totorlarning ko‘pchilagini qatl etdilar” [31; B.57]. Shu kabi rivoyatni Munis ham o‘zining “Firdavs ul-iqbol” asarida keltirgan [23; B.64-65]. Masalaning e’tiborli jihat shundaki, aksariyat musulmon muarrixlari yakdillik bilan tatar, qirg‘iz, uyg‘urlar hamda afsonaviy Tur ibn Faridun boshchiligidagi Movarounnahrlik elatlarni ushbu qirg‘inning sababchilari sifatida ko‘rsatadilar [29; B.64-65]. Bu esa dostonda eslatilgan voqeя kichik qabilaviy nizo emas, yirik urushdan iborat ekanligini taxmin qilishimizga asos bo‘ladi. Ammo, dostonda tilga olingan harbiy nizoning tarixiy ildizlarini asoslash uchun, eng avvalo, manbaviy, tarixiy geografik, xronologik va boshqa dalillarga asosan uning yuz bergen davrini aniqlash talab etiladi.

Turli olimlar Arkanaqun tog‘ining hududini turli joylarda – Manjuriyada, Buryatiyaning g‘arbida yoki Tuva Respublikasida ekanligini taxmin qiladilar [7]. Ammo, bu masala haligacha uzil-kesil o‘z tasdig‘ini topganicha yo‘q. Ushbu joy nominining asl ma’nosini ham turlicha talqin qilinadi. Musulmon tarixchilari, jumladan, Abulg‘oziy Bahodirxon “Arkanaqun” so‘zining ma’nosini quyidagicha ta’riflaydi: “Arkananing ma’nosini tog‘ kamari temak bo‘lur. Qunning ma’nosini tez va o‘tkir temak. Tog‘ning qiri erdi” [8; B.29]. Mirzo Ulug‘bek esa o‘zining “To‘rt ulus tarixi” asarida “Turklar bu tog‘ning nomini Arkanaqun derlar. Ya’ni Tund Kamar degani [30; B.58]”, – deya yozadi.

Shuningdek, hozirgi zamon mutaxassislari ham turlicha fikrlarni beradilar. Ularning ba’zilari bu joy nominini Arg‘un daryosi bilan bog‘lab ko‘rsatishga harakat qiladilar. Ammo, Mirzo Ulug‘bek o‘zining asarida ushbu daryoning nomini Arbun tarzida keltiradi va uning Arkanaqun voqeasi bilan biror bog‘liqligini eslatmaydi [30; B.71-72]. Biz esa o‘rtalarda shimoliy dashtlarda ko‘p sonli turkiy qabilalar yashaganligini hamda “erge” so‘zi turkiy tillarda “boshpava” yoki “eshik, darvoza” ma’nolarini bergenligini inobatga olgan holda, musulmon tarixchilarining bu boradagi fikri anchagina haqiqatga yaqin ekanligini aytu olamiz. “Erganak” so‘zi turk va mo‘g‘ul tillarida biror narsani himoyalashda ishlatilgan to‘sini yoki boshqa vositalarni anglatgan [14; B.177]. Bu nomni turk-mo‘g‘ul qabilalari vaqtinchalik o‘rnashgan tog‘ vodiysining shakli va balandligiga ishora qilgan atama deb qabul qilish mumkin.

Dostonning musulmon tarixchilari asarlarida bayon etilgan versiyalarida biror aniq geografik hududga ishora etilmagan. Ammo, Xitoy yilnomalarida urg‘ochi bug‘u yashiringan hududning tasviri Arkanaqun tog‘i tasviriga juda o‘xshab ketadi va bu umumiylig xususiyatlarini yana bir bor dalillaydi. Jumladan, “Suy shu” yilnomasida ushbu tog‘ning Gaochang shimoli-g‘arbida ekanligi yozilgan. Shuningdek, yilnomada

qadimgi turklarning tog‘dan chiqqan hududi sifatida “Jin” ya’ni Olttoy tog‘lari tilga olingan [10; B.1863]. Biz ushbu fikrdan Arkanaqunning Sharqiy Tyanshan tog‘ tizmalarida joylashganligi taxminini ilgari sura olamiz. Undan shimoli-sharqiy tomonda esa ushbu taxminimizga mos ravishda Olttoy tog‘lari joylashgan.

L.Gumilev milodiy 93-yilda xunnlarga zarba bergan qabilalar sifatida Xitoydan tashqari syanbi, dingling (qadimgi turklarning tele aholisi) qabilalari hamda Turfon aholisini sanab o‘tadi [12; B.87]. Biz syanbi qabilalarini tatarlar, dingling aholisini esa uyg‘urlarning ajdodi sifatida bilamiz. Bundan tashqari, Shimoliy Syungnu davlati (46-93) ning so‘nggi shanyuy (hukmdor)laridan bo‘lgan Yu-lyu (vaf. 87-y.)ning ismi va taqdiri, kichik ehtimol bilan bo‘lsa-da, afsonada tilga olingan Elxon shaxsiyatiga yaqinroqdir. Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, Yu-lyu shanyuy o‘z hukmronligining oxirida syanbi qabilalarining hujumiga uchrab, o‘ldirilgan va terisi shilib olingan [6]. Bu voqeadan keyin boshlangan tarqoqlik ko‘p o‘tmay davlatning qulashi hamda Shimoliy dashtlarda xunnlar ta’sirining butunlay yo‘qolishiga olib kelgan edi. Tarixiy jarayonlarning Tarbag‘atoy hududida yuz bergenligi esa tarixiy geografik taxminimizni mustahkamlaydi.

Shubhasizki, “Arkanaqun” dostoni voqeasi aniq tarixiy migratsiyalar jarayoniga guvohlik beradi. Bu jarayon ma’lum davrga qadar kuchsiz va e’tibordan chetda bo‘lib kelgan turk-mo‘g‘ul qavmlarining kuchayish omiliga ishora qiladi. Bu haqda turli olimlar o‘z fikrlarini bayon qiladilar. Tarixchi D’Osson bu voqeaneing Chingizzondan ikki ming yil oldin yuz bergenligini yozgan [13; B.41]. Ammo, bu fikrni voqeaga to‘laligicha tarixiylikdan yiroq afsona, deya baho berish hamda aniq xulosa berishdan chekinish sifatida qabul qilish mumkin. Ba’zi mo‘g‘ul olimlari fikricha, Jo‘janlar davlati qulagach, uning xalqi shiveylar bilan birgalikda Arkanaqunga qochganlar [2; B.129]. Ammo, bu voqeadan so‘ng Turk xoqonligi boshqaruvi ostida shimoliy dashtlarning to‘liq birlashtirilishi hamda ko‘p vaqt o‘tmay Xitoy yilnomalarida shiveylar haqida ma’lumotlar paydo bo‘lishi yuqorida fikrlarni shubha ostiga qo‘yadi. Chunki, Arkanaqun voqeasi bir necha asrlik yashirinishdan so‘ng yirik siyosiy o‘zgarishlarni boshlagan jarayonni o‘zida aks ettirgan voqealari bo‘lishi lozim.

Shu o‘rinda eslatish joizki, mo‘g‘ul xalqining nomi aksariyat Xitoy manbalarida “meng-u” tarzida yozilib, ularning Shiveyga kirishi eslatilgan [5; B.184]. Mo‘g‘ul etnonimi ilk marotaba 945-yilda yozilgan “Jyu Tang shu” (“Eski Tang tarixi”) yilnomasida “meng-u shivey” tarzida uchraydi [16; B.136]. Bu X asrda, va hatto, undan ilgariroq ham mo‘g‘ullarning ayni nomda xitoyliklarga ma’lum ekanligini anglatadi. Chunki, ularning VI-VII asrlarda Turk xoqonligiga bo‘ysunganligidan xitoyliklar xabardor edi. “Sin Tang shu” (“Yangi Tang tarixi”) yilnomasida shivey qabilalari xitan xalqining bir tarmog‘i ekanligi hamda dingling avlodiga mansubligi haqidagi ma’lumotlar berilgan [24; B.176]. Mirzo Ulug‘bek esa Arkanaqundan chiqish hamda tatarlar bilan jang voqealarini bayon qilar ekan shunday yozadi: “O‘z yerlarini egallagach, tashqarida qolgan bir guruham Xitoya borib, joylashgan edilar. Ular bu yerdan chiqib, mo‘g‘ul eliga kelib qo‘sildilar. Ammo mo‘g‘ul xalqi shu ikki nasldan boshqasini e’tiborga olmaydilar [30; B.60]”. Bu ma’lumot dostonda eslangan yashirinish davri O‘ttiz tatar qabila ittifoqiga kirgan hamda yilnomalarda “meng-u” tarzida nomlangan mo‘g‘ullarga qarindosh elatlarning ma’lum bir qismigagina tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Lekin, dostonning mazmuni shimollik ko‘chmanchi elatlarning tarixida yuz bergen yirik siyosiy burilishga aloqadordir. Umuman olganda, qadimgi turk va mo‘g‘ul “Arkanaqun” versiyalari umumiyligi ildizga ega bo‘lib, ushbu xalqlarning yashirinish davridan so‘ng yagona tarixiy taqdirga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Bunday xususiyat esa Turk xoqonligi tashkil topishidan keyingi davrlarga daxldordir.

Shuningdek, tarixchi olim Lin fon Pal fikricha, IX asrda Arkanaqun hududlari Xakasiyaga kirgan bo‘lib, o‘sha vaqtida u anchagini kuchli davlat bo‘lgan. “Meng-u”

aholisi esa IX asrda yoki biroz ilgariroq dushmanlardan vodiyga qochib, 300-400 yil yashagan bo‘lishi mumkin [25; B.46-47]. Ammo, biz ushbu fikrga qo‘shila olmaymiz. Chunki, IX-XII asrlarda mo‘g‘ul xalqi haqidagi tarixiy faktlarga boy ma’lumotlarning manbalarda tilga olinganligi ularning bu davrda boshqa xalqlarga noma’lum tarzda hayot kechirganligi ehtimolini rad qiladi. Umuman olganda, manbalarning xronologik dalillari ham yuqorida xulosalarimizni asoslaydi.

Xronologik xulosalar turli olimlarning asarlarida turlicha mazmunga egadir. Masalan, isroillik tarixchi M.Biran, Manjuriyada yashagan xitanlar (Lyao sulolasi, 907-1125) tomonidan Mo‘g‘ulistoniga qilingan yurishlar u yerdagi turkiy aholining g‘arbgaga, Chingizzon ajdodlari yashagan hududning sharqi va janubiga ko‘chishiga sabab bo‘lgan, deya xulosa bergen [1; B.88]. Ye.Kichanov fikricha esa, Rashididdin asarida keltirilgan Chingizzon tug‘ilishidan 400 yillik ilgarigi muddat haqidagi fikrga asoslanib, VIII asr o‘rtalarida xitanlar tazyiqi ostida mo‘g‘ullar g‘arbgaga ko‘chganlar va shu tariqa “Arkanaqun” dostoni shakllangan. Olimning taxminicha, ushbu migratsiya xitanlar hujumiga qadar boshlangan bo‘lishi ham mumkin [17; B.14]. Shu narsa aniqki, Lyao davlati tuzilishidan oldinroq, 885-887-yillarda xitanlar Shiveyga hujum qilganlar [19; B.139]. Bundan biroz ilgariroq esa shivey qabilalari qirg‘izlarning 847-yilgi hujumlariga ham uchragan edilar. O‘sha vaqtida mo‘g‘ul-shiveylar biroz g‘arbroqda, Kichik Xingan tog‘lari sharqiy tomonida, Sungari daryosining Amurga qo‘shilishining janubida yoki Yuqori Amur va Arg‘un daryosi janubida yashaganlar [17; B.13]. Ammo, bu faktlar mo‘g‘ullarning yashirinishiga xitanlar hujumi sabab bo‘lganligini isbotlash uchun yetarli emas. Buning ustiga VIII asr o‘rtalaridan boshlab xitanlar xalqaro munosabatlarda tinch rivojlanish pozisiyasini egallagan edilar. 755-763-yillarda yuz bergen An Lushan qo‘zg‘oloni esa Xitoyning Tang imperiyasi (618-907)ni zaiflashtirish barobarida shimollik xalqlarning kuchayishi uchun zamin yaratgan [20; B.56]. Umuman olganda, “Arkanaqun” dostonida asosiy o‘rinda tilga olingan tatar qabilalarining ajdodlari VIII asrning o‘rtalarida yirik siyosiy ta’sirga ega bo‘lmay, bu vaqtida Uyg‘ur xoqonligi (744-840) mintaqadagi yirik nufuzga ega imperiya hisoblanar edi.

Shuningdek, Ye.Kichanov o‘z fikrlarini asoslash uchun bir o‘rinda Rashididdinining “Jome ut-tavorix” asarida Barta Chinaning o‘g‘li Batachixon tug‘ilishidan Chingizzon tug‘ilishiga qadar 400 yil o‘tganligi yozilganini ta’kidlaydi [18; B.176]. Ammo, olim ma’lumotlarni tahlil qilishda biroz chalkashliklarga yo‘l qo‘yan. Rashididdin aslida Arkanaqundan chiqish emas, balki, mo‘g‘ul qabilalarining momosi Alan-qoa (yoki Alanquva) va uning eri Dobun mergan (yoki Do‘bun Bayon) davridan Chingizzongacha 400 yilga yaqin vaqt o‘tganligini yozadi [26; B.8]. Bu esa bir necha asrlik chalkashlikka sabab bo‘lishi mumkin.

“Mo‘g‘ullarning sirli tarixi”da Barta Chinadan Dobun merganga qadar 11 avlod ismi sanab o‘tilgan. Jumladan, keyingi shajara quyidagichadir: Batachixon – Tamacha – Qorichar Mergan – Aujam Boroul – Sali Qachau – Yeke Nidun – Sem So‘chi – Qarchu – Bo‘rjigiday Mergan – Toroqoljin Bayan. Mo‘g‘ullarning Shimoliy dashtlarga Tibetdan kelganligini ta’kidlovchi Tibet tarixiy manbasi – “Altan tobchi”da ham xuddi shu shajara berilgan [22; B.53]. Kitobda Toroqoljining Duva Soqor va Dobun Mergan ismli ikki o‘g‘li borligi, Duva Soqorning peshanasining o‘rtasida faqatgina bitta ko‘zi bo‘lganligi yozilgan [27; B.23]. Rashididdin qurlas urug‘idan bo‘lgan Alanquvaning eri Do‘bun Bayonning temirchilik bilan shug‘ullanganligini yozgan [26; B.154]. Abulg‘oziy Bahodirxon esa o‘zining “Shajarayi turk” asarida Alanquva Barta Chinaning o‘n uchinchi avlodni ekanligini ta’kidlaydi [8; B.43-44]. Ammo, bu borada uning fikrlarida ba‘zi chalkashliklar mavjud. Jumladan, u mazkur nasabnomada Barta Chinaning xotini Qoa-Maral (asarda Qo‘ymaral tarzida yozilgan)ni uning o‘g‘li sifatida tasvirlagan [8;

B.48-49]. Bu xatolikni uning asariga asoslanib yozilgan “Firdavs ul-iqbol”da ham uchratish mumkin [23; B.67]. Nima bo‘lgan taqdirda ham, orada o‘ndan ziyod avlod almashilganligi hamda har doim ham katta o‘g‘illar voris bo‘lavermasligini inobatga olgan holda, Ye.Kichanov tomonidan chalkashtirilgan vaqt oralig‘i taxminan 300 yilga yaqin vaqt ekanligini ayta olamiz.

Natijalar.

“Arkanaqun” dostoni barcha turkiy va mo‘g‘ul xalqlarining tarixiy taqdiriga tegishli bo‘lib, umumiylit xarakteriga egadir. Dostonning shakllanish jarayoniga esa turkiy xalqlar siyosiy, madaniy hayotida yuz bergen o‘zgarishlar, sulolagacha bo‘lgan va Lyao davri xitanlarining mintaqadagi gegemonlik uchun kurashi bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu doston turk-mo‘g‘ul xalqlarining bir necha mingyillik tarixi davomida yuz bergen voqeliklarni o‘zida aks ettirsa-da, ilk va rivojlangan o‘rta asrlar badiiy xalq ijodiyotining ma’naviy ta’siri, ko‘chmanchi feodal imperiyalar davrining badiiy ruhi asarda yaqqol sezilib turadi.

“Arkanaqun” turk-mo‘g‘ul eposining shakllanishida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy jarayonlar sifatida Syungnu qabila ittifoqining parchalanishi, Turk xoqonligining tashkil etilishi, mo‘g‘ul xalqlarida urug‘chilikning yemirilishi, Xitan imperiyasining bosqinchilik yurishlari kabilarni misol keltirishimiz mumkin. Turk-mo‘g‘ul xalqlarining umumiylit xarakteriga ega ushbu tarixiy dostonni deyarli to‘la tarixiy haqiqat mahsuli sifatida qabul qilish mumkin.

Badiiy syujetning umumiyl xususiyatlari, alohida personajlar va ularning faoliyat doirasidagi o‘xshashliklar tufayli dostonning qadimgi turk va mo‘g‘ul versiyalarini yagona ildizga ega asarlar sifatida e’tirof etish mumkin. Dostonning boshlanish qismi milodiy I asrda yuz bergen xalqaro siyosiy nizo haqida hikoya qiladi. Xronologik, lingvistik dalillar hamda manbalar tahlili asosida ushbu xulosaga kelish mumkin. Dostonda bayon etilgan tog‘ vodiylaridan chiqish voqeasi esa ilk o‘rta asrlarda qadimgi turklarning siyosiy maydonga kelishi aks-sadosidir.

Xulosha.

“Arkanaqun” tog‘ining joylashgan hududi sifatida eposining Xitoy yilnomalarida bayon etilgan tasviriy ifodalari hamda qadimgi turklar tarixiga oid jarayonlar geografiyasini tahlil qilish orqali Sharqiyy Tyanshan tog‘larini ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, doston matnini ilmiy o‘rganish jarayonida Syungnu ittifoqining parchalanishi va uning natijasida Arkanaqun tog‘iga kirmagan turli etnik guruhlarning shakllanishini dalillash imkonli bor. Bu etnik guruhlar bir necha asrlar davomida Syanbi konfederatsiyasi, Jo‘jan xoqonligi tarkibida bo‘lgan. Turk xoqonligi davri tarixiga oid xotiralarning XIII asr mo‘g‘ul dunyosi ma’naviy hayotida deyarli saqlanmaganligini “Arkanaqun” eposining mavhumliklarga boy syujeti bilan asoslashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ. REFERENCES:

1. Biran M. Kitan Migrations in Eurasia (10th-14th Centuries) // Journal of Central Eurasian Studies, Vol.3 (Oct. 2012). – P.85-108.
2. İsakov A. Kirgiz-moğol ilişkileri (IX.-XV. Yüzyıl) / Doktora Tezi. – Ankara, 2014. – 443 s.
3. The Secret History of The Mongols. Vol.1. (Translation) / tr. by Cleaves F.W. – Cambridge-London: Harvard University Press, 1982. – 280 p.
4. Türk tarihinin ana hatları. – İstanbul: Devlet Matbaası, 1930. – 606 s.
5. Xu Elina-Qian. Historical development of the pre-dynastic Khitan (Academic dissertation). – Helsinki: Multiprint Oy, 2005. – 300 p.
6. Youliu. URL: <http://en.wikipedia.org/wiki/Youliu>
7. Абаев Н.В. О прародине всех тюрков и монголов: “Эргенекон”, “Эргунэ-хун” или Танну-уряньхай? // Новые исследования Тувы. 2011. №.1. – С.169-185.

8. Баҳодирхон А. Шажарайи турк / Масъул мұхаррир ва сўзбоши муаллифи Б.А. Аҳмедов. – Т.: Чўлпон, 1992. – 192 б.
9. Бичурин (Иакинф) Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3 т., Т.1. – М.–Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1950. – 384 с.
10. Вэй Чжэн 魏徵. Суй шу 隋書. – Пекин 北京: Чжунхуа шуцзюй 中國局, 1973. – 1904 ┌ (бет).
11. Гумилев Л.Н. Кадимги турклар. Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрага тайёрловчилар: Бахтиёр Урдабекли, Абдуқаюм Айритомий. – Т.: Узбекистон Республикаси Фанлар Академияси “Фан” нашриёти, 2007. – 500 б.
12. Гумилев Л.Н. Тысячелетие вокруг Каспия. – М.: Мишель и Ко., 1993. – 336 с.
13. Д’Оссон К. История монголов от Чингиз-хана до Тамерлана. Т.1: Чингизхан. / Пер. и пред. проф. Н.Козьмина. – Иркутск: Огиз – Восточносибирское областное издательство, 1937. – 252 с.
14. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – 676 с.
15. Жанайдаров О. Түркі мифтері // Альманах Тюркской Академии. – Астана, 2013. – Б.378-387.
16. Крадин Н.Н., Скрынникова Т.Д. Империя Чингис-хана. – М.: Вост.лит., 2006. – 557 с.
17. Кычанов Е.И. Жизнь Темучжина, думавшего покорить мир: Чингис-хан. Личность и эпоха. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН; Школа-Пресс, 1995. – 272 с.: ил.
18. Кычанов Е.И. Кочевые государства от гуннов до маньчжуров. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 1997. – 319 с.
19. Кычанов Е.И. Монголы в VI – первой половине XII в. // Дальний Восток и соседние территории в средние века. – Новосибирск: Наука, 1980. – С.139.
20. Латипов Ж. Хитанлар: давлатчилик сари йўл (монография). – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2019. – 92 б.
21. Линху Дэфэнь 令狐德棻. Чжоу шу 周書. – Пекин 北京: Чжунхуа шуцзюй 中國局, 1971. – 932 ┌ (бет).
22. Лубсан Данзан. Алтан тобчи (“Золотое сказание”). / Пер. С монгольского, введ., комм., и прил. Н.П. Шастиной. – М.: Издательство “Наука” – Главная редакция восточной литературы, 1973. – 440 с.
23. Мунис ва Огохий. Фирдавс ул-иқбол. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – 520 б.
24. Оуян Сю 歐陽脩. Синь Тан шу 新唐書. – Пекин 北京: Чжунхуа шуцзюй 中國局, 1975. – 6472 ┌ (бет).
25. Паль, Лин фон. История империи монголов: До и после Чингисхана. – М.: АСТ; СПб: Астрель-СПб, 2010. – 541 с.
26. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т.1, Кн.1./Пер. с персидского Л.А. Хетагурова, ред. и прим.проф. А.А. Семенова. – М.–Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – 200 с.
27. Старинное Монгольское сказание о Чингизхане (пер. с кит., с прим. Архимандрит Палладий) // Труды членов Российской духовной миссии. Т.4. – СПб: Типография В.Безобразова и комп., 1866. – С.3-260.
28. Сыма Цянь. Исторические записки: Ши щи [В 9 т.]. Т.8 / Пер. с кит. Р.В. Вяткина и А.М. Карапетьянца, comment. Р.В. Вяткина, А.Р. Вяткина и А.М. Карапетьянца, вступ. ст. Р.В. Вяткина. – М.: Вост.лит., 2002. – 623 с.
29. Хафиз-и Таныш ибн Мир Мухаммад Бухари. Шараф-нама-йи шахи (Книга шахской славы) / факсимиле рукописи D 88, перевод с перс., введ., прим. и указ. М.А. Салахетдиновой, часть 1. – М.: Издательство “Наука” – Главная редакция восточной литературы, 1983. – 300 с.
30. Ходжаев А. Из истории древних тюрков (сведения древнекитайских источников). – Т.: Издательство “Tafakkur”, 2010. – 220 с.
31. Улуғбек Мирзо. Тўрт улус тарихи / Б. Аҳмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таҳририда; Форс тилидан Б.Аҳмедов ва бошқ.тарж. – Т.: Чўлпон, 1993. – 352 б.